

CHILONJIYDA (ZIZIPHUS) O'SIMLIGI TURLARI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Inomjonov Shuxratbek Nematjonovich

Abidov Bahtiyorjon Usmanovich

shuhratinomjonov7@gmail.com

Usmanovich@gmail.com

O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti

Andijon filiali va O'rmon xo'jaligini rivojlantirish

Innavatsiya markazi ilmiy xodimlari

Annotatsiya: Ushbu maqolada chilonjiyda (ziziphus) o'simligi turlari, respublikamizda yetishtirilishi, dorivorlik xususiyatlari va xalq tabobatida qo'llanishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan

Kalit so'zlar: O'rmon, chilonjiyda, qurg'oqchil, nihol, agrotexnik talablar, rivojlanish, iqlim, urug', dorivor.

Annotation: This article provides information about the species of the chilongi plant (ziziphus), its cultivation in the republic, its medicinal properties and its use in folk medicine.

Keywords, forest, arid, seedling, agrotechnical requirements, development, climate, seed, medicine.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-may Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-251-son Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish hamda qayta ishlashni tashkil etish, dorivor o'simliklarning madaniy plantatsiyalarini barpo etishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, kasalliklarning oldini olish va davolashda dorivor o'simliklarni keng qo'llash qarori doirasida keng ko'lamda ishlar amlga oshirilmoqda. Chilonjiyda Xitoy

xurmosi (Ziziphus)- jumrutmashlar oilasi, zizifus turkumiga mansub daraxt yoki buta, bargi tuxumsimon, yaltiroq, chetlari mayda arra tishli. May oxiri iyul boshlarida gullaydi, gullashi 30-35 kun davom etadi. Guli xushbo'y, ikki jinsli, mayda, sarg'imtirk'o'kish. O'zidan va chetdan changlanadi. Sentabr oxirida pishadi. Eti och yashil, oq, shirin. Tarkibi: 19-20% qand, 0,3-0,5% kislota, 2,8-2,9% oqsil, 1,73% kul moddasi, 500-523 mg S va R, A vitaminlari, ildiz, barg va po'stlog'ida 4-9,5% oshlovchi moddalar, karotin, bargida esa alkaloidlar, flavoidlar va boshqa shifobaxsh moddalar bor. Chilonjiyda mevasi tarkibida 20-30 % qandlar, 2,5 % gacha organik kislotalar, danagida 30 % gacha moy buladi. Chilonjiyda bargida 700 mg % C vitamin, 1,77 % glikozidlar, 2,64 % organik kislotalar, karotin, 1,6 % rutin, 1,7 % anesteziya qiluvchi birikma, 7,5 % oshlovchi moddalar mavjud. Xalq tabobatida qo'llanilishi: Tana a'zolarining tarangligini oshiruvchi, peshob haydovchi, balg'am ko'chiruvchi dorivor vosita sifatida qo'llaniladi.



1-rasm Chilonjiyda o'simligining umumiy ko'rinishi

Chilonjiyda mevasidan tayyorlangan damlama ko'krig og'rig'i, yo'tal, chechak, kamqonlik va ich ketish kasalliklarida og'riq qoldiruvchi va qon to'xtatuvchi dori sifatida ishlatiladi. Tabiatning boy ne'matlaridan biri bo'lgan chilonjiyda (Ziziphus) o'simligi dunyo bo'ylab keng tarqalgan va iqtisodiy, ekologik hamda dorivor ahamiyati bilan tanilgan o'simliklardan biridir. Chilonjiyda asosan qurg'oqchil va

yarim qurg'oqchil hududlarda yaxshi o'sadi, tuproq sharoitlariga moslashuvchanligi va ozuqa moddalari jihatidan boy mevalari bilan ajralib turadi. Ushbu o'simlik xalq tabobatida va farmatsevtika sanoatida keng qo'llaniladi, shuningdek, iqlim o'zgarishiga moslashuvchanligi tufayli ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Chilonjiyda mevalari ozuqaviy qiymatga ega bo'lib, vitaminlar, minerallar va biofaol moddalar manbai hisoblanadi. Uning dorivor xususiyatlari, jumladan, immunitetni kuchaytirish, stressni kamaytirish, qon bosimini me'yorda ushlash va boshqa kasalliklarni davolashdagi roli ilmiy jihatdan isbotlangan. Shu sababli, chilonjiyda o'simligini ko'paytirish va yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ayni paytda chilonjiydani urug'idan yetishtirish texnologiyasi bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Urug'ning tabiiy qobig'i qattiq bo'lgani sababli unuvchanlik past bo'lib, bu o'simlikni tabiiy sharoitda tiklanishini qiyinlashtiradi. Shu bois, urug'ni ekishga tayyorlashning ilg'or usullarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish zarur. *Chilonjiydaning turlari:* 1. Lotus chiloni – Zizifus Lotus (Zizyphus lotus) balandligi 1.5-2 m ga teng tikanli buta yoki 9-12 metrli kichik daraxtcha, mevalari mayda, sharsimon, sariq, iste'molbop. Mevalari yeyiladi lekin sifatiga ko'ra Zizyphus jujube mevalariga teng kela olmaydi. Bu tur Janubiy yevropa, Shimoliy afrikada tabiiy o'sadi, Misrda, Italiya va Ispaniyada madaniy holda ko'plab o'stiriladi. 2. Jiraldi chiloni – Zizifus Jiraldi (Zizyphus jiraldii) asosan Shimoliy Xitoyda tarqalgan va mevalari qora rangda iste'molga yaroqli hisoblanadi. 3. Hind chiloni – Zizifus Mauritiana (Zizyphus mauritiana) u tikanli buta yoki kichik daraxt sifatida tarqalgan. Hindistonning markaziy mintaqalarida uning balandligi 24 metrgacha yetadigan yirik daraxtlari uchraydi. Bu turning qiziqarli xususiyatlari kuzda gullashidir. Mevalari qishda yoki bahorda pishib yetiladi. Sovuqda chidamsiz tur hisoblanadi. Bu tur tabiiy holda Sharqiy Hindistonda, Seylon va Avstraliya mintaqasida tarqalgan. Mevasida 10-13 % qand moddasi bor. Bargida qimmatli texnik xomashyo – Shellak olinadi. 4. Ajinli chilon – Zizifus morshinistiy (Zizyphus rugosa) Burmada tarqalgan bo'lib tog'larda 1200 m balandliklargacha ko'tariladi. Mevalari

mayda iste'molga yaroqli, sovuqqa chidamliligi bo'yicha seleksiya maqsadlari uchun qiziqarli biologik ob'ekt hisoblanadi. Mevasi maydaligi uchun maydalashtirilmagan.

5. Dumaloqbargli chilon – Zizifus krugloolistniy (Zizyphus rotundifolia) bu oddiy chilonjiydaga yaqin tur bo'lib tikanli butadir. Tikonlari ingichka 1.25 sm uzunlikda, mevalari mayda 1.2 sm uzunlikda qoramtir nordon – shirin tamga egadir. 6. Iozenro chiloni – Zizifus Ionzenro (Zizyphus Ioareiro) manzarali daraxt bo'lib, Braziliyada tarqalgan va ko'kalamzorlashtirishda keng foydalaniladi. Uning mevalari shirin tamli, qurg'oqchilikka chidamli, yirik mevali, serhosil, chorva uchun oziqa hisoblanadi. Ildizida saponin moddasi bor. 7. O'tkir uchli chilon – Zizifus ostrokonechniy (Zizyphus mucronata) bu tur Janubiy tropiklarda o'sadi, sovuqqa chidamsiz tur hisoblanadi. 8. Mistel chiloni – Zizifus Mistelya (Zizyphus Mistal) bu tur Argentinada tarqalgan bo'lib bo'yi 10 m gacha bo'lib, mevasi tovuq tuxumi kattaligida suvli va shirindir. 9. Eloptiya chiloni – Zizifus Eloptiya (Zizyphus Oenoptis) bu tur Avstraliya Shimolida tabiiy tarqalgan, asosan oziq- ovqat va farmasevtika maqsadlarida foydalaniladi. Chilonjiyda. namsevar, qurg'oqchilik va sovuqqa chidamli, bahorgi qorasovuqdan zararlanmaydi. Ko'chati o'tqazilgach 2-4yili hosilga kiradi. 18-20 yoshida bir tup daraxti 40-45 kg meva beradi. Hosildorligi 150-200 s/ga. Qalamcha, payvandlash yo'li bilan hamda urug'idan ko'paytiriladi. Mevasi yangiligida yeyiladi, quritiladi, murabbo, kompotlar, konserva qilinadi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida 1967-yildan Xitoy va 1934-yilda Kaliforniya AQSHdan keltirilgan Tan Yanszao, U Sinxun navlari ekiladi. O'zbekistonda chilonjiydaning ikki xil navi mavjud. Biri xuddi marjondek dum-dumaloq shaklda bo'lib, Xorazmda uni "annob jiyyda" deyishadi. Ushbu daraxtning ninalaridan qizchalarning qulog'iga zirak taqish uchun teshilganida undan foydalanishadi. Chunki antiseptik xususiyatga ega. Ikkinchi turi esa "unabi" deb ataladi. U nok shakliga o'xshaydi, uzunchoq bo'ladi. Har ikkisi ham shifobaxsh bo'lib, o'ziga xos chiroyli, barglari yaltiroq, gullaganda o'zgacha ifori va go'zalligi bilan dillarni yayratadi." Shifobaxshligi bilan insonlar e'tiborini tortgan bu ne'mat - tana a'zolarining tonusini ko'taruvchi, siydik haydovchi,

balg'am ko'chiruvchi malham sifatida qo'llaniladi. Shuningdek, gipertoniya va ateroskleroz kasalliklarida ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-may "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-251-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
3. Dendrologiya A.K.Qayumov, E.T.Berdiyev, Toshkent Fan texnologiya 2012 yil B. 25–28
4. Grozdov.B.V. Dendrologiya Moskva 1960
5. E.T.Berdiyev, M.X.Hakimova, G.B.Maxmudova. O'rmon dorivor o'simliklari (o'quv qo'llanma)-T. "Sano-standart" nashriyoti 2016.
6. Axmedov. O'.A, Xolmatov.H.H, Chilonjiyda dorivor o'simlik. T.1993.